

Tomoshabin madaniyati qachon shakllanadi

Inson ma'naviyatini tarbiyalashda teatr san'atining o'rni beqiyos. Zero, san'at insonni ma'naviy jihatdan boyitadi, ijodiy qobilyatini rivojlantiradi, ezgulik sari yetaklaydi. Yaqinda "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti Yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan muovini H.Eshova hamda fakultet murabbiylar kengashi raisi A.Muqimov boshchiligidagi fakultetining 10 ga yaqin guruh va 300ga yaqin talaba-yoshlari spektaklga tushib, yuqoridagi gap naqadar to'g'ri ekaniga yana bir marta amin bo'lishdi.



O'zbekiston davlat drama teatrida Said Ahmadning xajviy hikoyalari asosida (sahnalashtiruvchi rejissyor S. Meliev) spektakl namoyish etildi. Ushbu spektaklda bir mahallada yashovchi qo'shnilarining munosabatlari kulgu orqali yoritib berilgan. Spektakl satirik komediya janrida bo'lib, muammolar va vaziyatlar kulgili tarzda ifoda etildi. Ushbu spektakl talabalarda katta taassurot qoldirdi.



YERB fakulteti Yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati